


CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI


Asosiy tarkib



Dastlabki maʼlumotlar

2021- yilning yanvar-iyun oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 4 310,1 mlrd. soʻmni tashkil etib, 2020- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 4,1 % ga oshdi. Shu jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi 577,0 mlrd. soʻmni (24,9 % ga kamaydi), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 3 733,0 mlrd. soʻmni (10,7 % ga oshdi), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 711,4 mlrd. soʻmni (40,5 % ga oshdi) tashkil etdi.


Tarkibiy qism, ulushlarda



Oʼsish (oʼzgarish) surʼatlari, foizda



Uyushmagan savdo, mlrd. soʻm




HUDUDLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI, mlrd. so'm

UMUMIY MA'LUMOT

2021- yilning yanvar-iyun oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **4 310,1** mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan **104,1 %** ni tashkil etdi.

Chakana savdo tovar aylanmasida Urganch shahrida kamayish sur'ati kuzatildi. Chakana savdo tovar aylanmasining tarkibiy qismlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga **86,6 %** va yirik korxonalar hissasiga **13,4 %** to'g'ri keldi.



ENG YUQORI ULUSH


Chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulush Urganch shahrida **33,5 %** ulush bilan **1 444,9** mlrd. so'mni tashkil etdi.

ENG QUYI ULUSH

Chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulush Tuproqqal'a tumanida **2,2 %** ulush bilan **94,5** mlrd. so'mni tashkil etdi.

**YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING CHAKANA
SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda**

XORAZM VILOYATI
ULGURJI VA CHAKANA
SAVDO TOVAR AYLANMASI
2021- yil yanvar-iyun



Chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga to'g'ri keldi. Mazkur hajm 2021- yil yanvar-may oylari yakuniga ko'ra, **3 733,0** mld. so'mni tashkil etib, 2020- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan **10,7 %** ga o'sgan. Jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi esa **86,6 %** ni tashkil etdi.

Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Tuproqqa'l'a (99,8 %), Yangiariq (99,3 %), Bog'ot (99,1 %) va Gurlan (98,7 %) tumanlarida yuqori bo'lgan.




Yirik korxonalar	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari	2020- yil yanvar-iyun
		2021- yil yanvar-iyun



**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR,
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK
SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**


2020- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan chakana savdo tovar aylanmasida Urganch shahrida kamayish sur'ati kuzatilib 96,2 % ni tashkil qildi.

Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'atlari, foizda




	Jami, mln. so'm	2020- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mln. so'm	2020- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mln. so'm	2020- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, foizda
Xorazm viloyati	4 310 064,1	104,1	577 047,7	75,1	3 733 016,4	110,7
<i>shaharlar:</i>						
Urganch	1 444 882,2	96,2	472 830,4	74,1	972 051,8	112,6
Xiva	166 305,3	104,0	11 142,9	88,3	155 162,4	105,4
<i>tumanlar:</i>						
Bog'ot	230 396,5	111,0	2 129,8	16,9	228 266,7	117,1
Gurlan	365 880,3	109,8	4 920,7	77,2	360 959,6	110,5
Qo'shko'pir	182 916,5	110,5	10 237,4	141,5	172 679,1	109,1
Urganch	426 079,6	103,0	22 685,1	85,3	403 394,5	104,2
Hazorasp	450 892,7	111,5	25 925,3	2,4 m.	424 967,4	108,0
Tuproqqal'a	94 508,7	111,6	207,9	4,4 m.	94 300,8	111,5
Xonqa	268 990,7	111,2	11 880,9	35,9	257 109,7	123,2
Xiva	109 534,7	104,5	2 481,2	115,6	107 053,5	104,3
Shovot	296 920,1	112,0	4 993,2	37,7	291 926,9	115,9
Yangiariq	177 082,5	103,6	1 246,8	29,1	175 835,8	105,5
Yangibozor	95 674,4	110,1	6 366,2	4,8 m.	89 308,2	104,3

CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari




Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi, 2020- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **24,9 %** ga kamaydi va **577,0 mlrd. so'mni** tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **13,4 %** ulushiga to'g'ri keladi.



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **3 733,0 mlrd. so'mni** tashkil etib, 2020- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **10,7 %** ga o'sdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **86,6 %** ni tashkil etdi.


**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK
BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING
HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI (foizda)**



■ Yirik korxonalar

■ Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Tuproqqa'l'a (99,8 %), Yangiariq (99,3 %) va Bog'ot (99,1 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning ulushi 13,4 % ni tashkil etib, eng katta ulush Urganch shahrida (32,7 %), Yangibozor tumani (6,7 %), Xiva shahri (6,7 %) va Hazorasp tumanida (5,7 %) kuzatildi.



2021- yil yanvar-iyun oylari holatiga ko'ra, o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **2 269,9** ming so'mni (2020- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan **2,6 %** ga oshdi) tashkil qildi. Yuqori o'sish sur'ati Shovot (110,4%), Tuproqqa'l' (110,4 %), Hazorasp (109,8 %) tumanlarida qayd etildi. Urganch shahrida (95,5 %) eng quyi ko'rsatkich kuzatildi.

Ushbu ko'rsatkichlar hududlar kesimida solishtirilganda, aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasida yuqori hajmlar Urganch shahri (9 951,0 ming so'm), Gurlan (2 440,8 ming so'm) va Hazorasp (2 297,0 ming so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

XORAZM VILOYATI BO'YICHA AHOLO JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI




XORAZM VILOYATI
ULGURJI VA CHAKANA
SAVDO TOVAR AYLANMASI
2021- yil yanvar-iyun

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI


Asosiy tarkib, foizda




Oʼsish (oʼzgarish) surʼatlari, foizda



Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



Eng yuqori ulushga ega hududlar



UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON* VA
CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING SAVDO
AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

XORAZM VILOYATI
ULGURJI VA CHAKANA
SAVDO TOVAR AYLANMASI
2021- yil yanvar-iyun

2021- yilning yanvar-iyun oylarida dehqon va chorva (parranda) bozorlarida uy xo'jaligida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, parrandalar va chorva mollari savdosi bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvi o'tkfildi. Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo aylanmasi hajmi dehqon bozorlarida 343,3 mlrd. so'mni, chorva (parranda) bozorlarida 368,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.



* Xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagisi tadbirkorlar (YTT)ni qo'shmagani holatda

* Jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, chorva (parranda) mollari

	Jami, mlrd. so'm	2020- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mlrd. so'm	2020- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, foizda	Chorva (parranda) bozorlari, mlrd. so'm	2020- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, foizda
Xorazm viloyati	711,4	140,5	343,3	117,7	368,2	171,6
<i>shaharlar:</i>						
Urganch	141,3	141,2	96,3	140,6	44,9	142,5
Xiva	11,1	105,8	11,1	105,8	-	-
<i>tumanlar:</i>						
Bog'ot	108,2	141,0	15,9	81,5	92,4	161,2
Gurlan	68,2	141,3	21,1	109,4	47,1	162,5
Qo'shko'pir	50,1	110,0	34,5	109,4	15,6	111,2
Urganch	-	-	-	-	-	-
Hazorasp	81,8	154,6	42,6	128,3	39,2	199,0
Tuproqqa'l'a	22,5	155,6	20,7	152,9	1,9	195,2
Xonqa	67,5	163,6	48,8	141,0	18,8	2,8 m.
Xiva	-	-	-	-	-	-
Shovot	131,5	138,2	40,6	81,2	90,9	2,0 m.
Yangiariq	19,0	139,7	8,2	104,3	10,8	188,7
Yangibozor	10,2	131,3	3,6	110,1	6,6	146,5



2,1
mlrd. so'm

Tuzlamalar



132,4
mlrd. so'm

Yangi uzilgan qishloq
xo'jaligi mahsulotlari



6,9
mlrd. so'm

Quritilgan qishloq
xo'jaligi mahsulotlari
(yong'oq, bodom, pista va
boshqalarni qo'shgan holda)



52,0
mlrd. so'm

Non va non
mahsulotlari



8,7
mlrd. so'm

30,2
mlrd. so'm



Sut va sut
mahsulotlari



59,4
mlrd. so'm

Don mahsulotlari (mosh,
loviya, no'xat, guruch va
boshqalar)



15,8
mlrd. so'm

Chorva mollari va
parrandalar uchun har xil
yem-hashaklar



3,0
mlrd. so'm

Ziravorlar



28,9
mlrd. so'm

Tovuq go'shti




3,6
mlrd. so'm

Gullar, o'simlik va nihol
ko'chatlari (manzarali va
qishloq xo'jaligi)

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: DEHQON BOZORLARI

2021- yilning yanvar-iyun oylarida viloyatning (Urganch va Xiva tumanlaridan tashqari) 11 ta hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra, savdo aylanmasi hajmi **343,2** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (**132,4** mlrd. so'm) to'g'ri keldi.


2021- yilning yanvar-iyun oylarida viloyatning **10** ta (Xiva shahri, Urganch va Xiva tumanlaridan tashqari) hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra, savdo aylanmasi hajmi **368,2** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagи qora mollar savdosi **340,7** mlrd. so'mni, qo'y va echkilar **24,3** mlrd. so'mni, parrandalar **3,1** mlrd. so'mni tashkil etdi. Savdo aylanmasining to'liq tarkibi quyidagi ko'rsatkichda o'z aksini topgan:



UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK
KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK
SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

2021- yilning yanvar-iyun oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 1,0 % ni tashkil etib, 42,3 mld. so'mga yetdi va 2020- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 1,4 % ga kamaydi. Bunda jami savdo aylanmasining 99,0 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasining o'sish sur'atlari, foizda




	Jami, mln. so'm	2020- yil yanvar- iyun oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mln. so'm	2020- yil yanvar- iyun oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mln. so'm	2020- yil yanvar- iyun oylariga nisbatan, foizda
Xorazm viloyati	42 318,6	98,6	416,0	10,7	41 902,5	107,3
<i>shaharlar:</i>						
Urganch	17 622,6	96,5	-	-	17 622,6	103,0
Xiva	1 928,4	100,6	-	-	1 928,4	100,6
<i>tumanlar:</i>						
Bog'ot	1 682,4	101,1	-	-	1 682,4	101,1
Gurlan	1 206,5	101,0	-	-	1 206,5	101,0
Qo'shko'pir	791,1	101,3	-	-	791,1	101,3
Urganch	6 853,2	101,4	416,0	114,2	6 437,2	100,7
Hazorasp	3 131,4	100,9	-	-	3 131,4	100,9
Tuproqql'a	722,0	100,7	-	-	722,0	100,7
Xonqa	1 408,1	101,3	-	-	1 408,1	101,3
Xiva	1 044,2	100,6	-	-	1 044,2	100,6
Shovot	4 150,8	95,8	-	-	4 150,8	2,1 m.
Yangiariq	749,8	101,2	-	-	749,8	101,2
Yangibozor	1 028,1	100,5	-	-	1 028,1	100,5

ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

Asosiy tarkib, foizda



O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda




ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

2021- yilning yanvar-iyun oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 1 269,1 mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 2,1 % ga kamaydi. Shu jumladan, yirik korxonalarning savdo tovar aylanmasi 354,7 mlrd. so'mni (13,3 % ga kamayish), kichik biznes subyektlarining savdo tovar aylanmasi 914,4 mlrd. so'mni (3,0 % ga ko'payish) tashkil etdi.

Savdo aylanmasi hajmi va ulushi

Ulgurji savdo	1 269,1 mlrd. so'm, 100 %
Yirik korxonalar	354,7 mlrd. so'm, 27,9 %
Mikrofirma va kichik korxonalar	914,4 mlrd. so'm, 72,1 %

Eng yuqori ulushga ega hududlar






ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR
VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING HAJMI VA
O'SISH SUR'ATLARI

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariiga ega yirik korxonalar Bog'ot tumani (3 690,8 m.), Gurlan tumani (1 052,3 m.), Yangibozor tumani (35,5 m.) va Hazorasp tumani (13,1 m.) da kuzatildi.


Ulgurji tovar aylanmasida yuqori o'zgarish sur'ati Gurlan (3,7 m.), Bog'ot (3,0 m.) va Xiva (154,5 %) tumanlarida qayd etildi. **Ulgurji savdo aylanmasi o'sish sur'atlari, foizda**



	Jami, mln. so'm	2020- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mln. so'm	2020- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, foizda	Mikrofirma va kichik korxonalar, mln. so'm	2020- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, foizda
Xorazm viloyati	1 269 071,4	97,9	354 679,6	86,7	914 391,8	103,0
<i>shaharlar:</i>						
Urganch	532 831,2	87,1	112 959,3	61,9	419 871,8	97,8
Xiva	40 445,4	99,4	470,3	129,6	39 975,1	99,1
<i>tumanlar:</i>						
Bog'ot	40 090,3	3,0 m.	26 677,4	3690,8 m.	13 412,9	100,0
Gurlan	91 798,0	3,7 m.	67 367,6	1052,3 m.	24 430,5	98,2
Qo'shko'pir	6 642,7	99,9	5,9	29,8	6 636,7	100,1
Urganch	324 432,0	97,1	142 015,1	94,1	182 416,9	99,6
Hazorasp	17 463,8	101,4	266,9	13,1 m.	17 196,9	99,9
Tuproqqa'l'a	6 418,8	8,9	17,8	0,0	6 401,0	98,8
Xonqa	53 705,9	89,1	3 827,9	40,5	49 878,0	98,1
Xiva	104 715,5	154,5	108,4	132,7	104 607,1	154,5
Shovot	22 027,0	98,8	42,6	2,3 m.	21 984,4	98,6
Yangiariq	10 916,6	105,1	175,4	7,7 m.	10 741,2	103,6
Yangibozor	17 584,3	117,6	744,8	35,5 m.	16 839,5	112,8



**YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES
SUBYEKTLARINING ULGURJI SAVDO
TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda**



Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2021- yil yanvar-iyun oylari yakuniga ko'ra, **914,4** mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan **3,0 %** ga ko'paygan. Jami ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi esa **72,1 %** ni tashkil etdi.

Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda Xiva (99,9 %) va Qo'shko'pir (99,9 %) tumanlarida yuqori bo'lgan. Eng past ulush esa Gurlan tumani (26,6 %) va Bog'ot tumaniga (33,5 %) to'g'ri keldi.

**Tashqi iqtisodiy
faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Tel.: (62) 224-65-09**

Yirik korxonalar	Mikrofirma va kichik korxonalar	2020- yil yanvar-iyun	2021- yil yanvar-iyun